

**O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari
va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali**

“Kompyuter injiniringi” fakulteti

“Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası

MUSTAQIL ISH

**MAVZU: JISMONIY VA YURIDIK
SHAXSLAR**

Bajardi:

613- 15 guruh talabasi

Vaxobov D.

Qabul qildi:

Rustamov I.

Farg'ona - 2015

Mavzu: Jismoniy va yuridik shaxslar

REJA:

- 1. Jismoniy shaxs haqida umumiy tushuncha**
- 2. Fuqarolik huquqida yuridik shaxs tushunchasi va belgilari**
- 3. Yuridik shaxslarni tashkil etish asoslari.**

Jismoniy shaxs haqida umumiy tushuncha

Jismoniy shaxs (fuqarolik huquqida) — huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan alohida fuqaro (chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar)ni ifodalovchi tushuncha. U jamoaviy tuzilma bo'lgan yuridik shaxstya farq qiladi: Jismoniy shaxs bevosita o'z nomidan ish yuritadi — faoliyat yurgizishi uchun jamoaviy tuzilma — tegishli firma yoki korxonani qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi shart emas, Jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatining vujudga kelishi hamda barham topishi tartibi ham yuridik shaxslardan farqlanadi.

Jismoniy shaxs mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishi, uni meros qilib olishi va vasiyat etib qoldirishi; bankda o'z jamg'armalarini saqlashi; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi b-n, qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi; yollanma mehnatdan foydalanishi; yuridik shaxs tashkil etishi; shartnoma, bitimlar tuzishi va majburiyatlarini bajarishi; o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining qoplanishini talab qilishi;

Mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashi; fan, adabiyot va san'at asarlari, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat samaralarining muallifi huquqiga ega bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida fuqarolar — Jismoniy shaxslarning huquq va burchlariga oid qonun-qoidalar Fuqarolik Kodeksida belgilab berilgan (16—38-moddalar).

Fuqarolik huquqida yuridik shaxs tushunchasi va belgilari

Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va

majburiyatlarga ega bo'lishi layoqati nafaqat fuqarolarga, balki yuridik shaxslarga ham beriladi.

O'zbekistonda yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning butun bir turkumi vujudga keltirilgan. Kooperatsiya, Fermer xo'jaligi, Siyosiy partiyalar, Banklar va bank faoliyati to'g'risida, Notariat, Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, Nodavlat notijorat tashkilotlar, Birja va birja faoliyati to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

Ularning har birida turli xo'jalik yuritish shakliga ega bo'lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o'ziga xos ta'riflar, tushunchalar berilgan. FK esa ularning barchasini umumlashtirib quyidagicha ta'rif beradi:

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi (FK, 39-modda).

Yuqorida berilgan ta'rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo'la oladi.

Yuridik shaxslar:

- 1) tashkiliy birlik;
- 2) mulkiy mustaqillik;
- 3) mustaqil mulkiy javobgarlik;
- 4) fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy birlik – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishligini bildiradi.

Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishi (struktura-si)ni ko`rsatadigan Nizomi yoki Ustavi bo`lishi kerak. Ba`zi davlat muassasalari va davlat budjetida bo`lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida Nizomga ega bo`lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy Nizom asosida ish olib borishlari mumkin.

Yuridik shaxslarning ayrim filiallari (xo`jalik bo`limlari, uchastkalari, agentliklari) ma`lum tizimga ega bo`lgan, muayyan tarzda tashkil etilgan bo`lsa ham, ular butun bir tashkilot (kor-xona, muassasa) ishining bir qisminigina bajaruvchi tashkilotlari bo`lgani tufayli yuridik shaxs bo`la olmaydi. Masalan, Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universitetining yuridik fakulteti muayyan shaklda tashkil topib, ish olib borish tartibi, kafedra a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, dekaning vakolatlari belgilangan bo`lsa ham, yuridik shaxs hisoblanmaydi.

Mulkiy mustaqillik – fuqarolik huquqining subyekti bo`lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o`ziga xos mulki bo`lishi, har qaysi davlat tashkilotining o`ziga biriktiril-gan mulki bo`lishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo`lishlari kerak (FK, 39-modda, 2-band).

Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning Ustav doirasida aks ettiriladi. Ustav fondi ta`sischilarining qo`shgan pul mablag`lari, ko`chmas mol-mulkklari, a`zolik badallaridan, tadbirkorlik fao-liyatidan topilgan daromadlaridan, fuqarolarning ixtiyoriy xay-riya mablag`laridan, aksiyalaridan tushgan dividendlardan va qonunda man etilmagan o`zga manbalardan tashkil topadi. Bu sohada ayrim cheklovlar ham bor. Chunonchi, siyosiy partiyalar davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan, xori-jiy davlatlar va tashkilotlardan, xalqaro tashkilotlardan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslardan, diniy tashkilot-lardan, anonim xayriya beruvchilardan mablag`lar va boshqa mol-mulklar olishi taqiqlanadi.

Davlat tashkilotlari davlatga qarashli mulkka nisbatan to`la xo`jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqigagina egadirlar. Kooperativlar va

jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkni egallaydi.

Alohida mulkka ega bo'lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo'jalik munosa-batlarida bo'la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyekti bo'lib hisoblanmaydi.

Mustaqil mulkiy javobgarlik – shundan iboratki, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan (davlat tashkiloti esa, o'ziga biriktirib qo'yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo'l-maydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Davlat budjetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag` berish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga qarashli yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlarning qarzlari yuzasidan javobgar bo'l-maydi. Ammo yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga bo'ysunadigan tashkilotning qarzlari uchun qonunda yoki Nizomda nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'lishi mumkin. Quyi tashkilotlar ham o'zlari-ning yuqori tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar.

Yuridik shaxslar o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi.

Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo'lmaganida davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar (qo'shimcha) javobgar bo'ladi.

Yuridik shaxsning bankrotligi uning mulkdori yoki ta'sischi-ning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmaganda, uning mulkdori (yoki ta'sischisi) zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilishi – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarak-terda bo'lmagan huquqlarga ega

bo`la olishi va majburiyatlar vujud-ga keltira olishi, demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo`jalik sudida mustaqil ravishda da`vogar va javobgar bo`la oladi.

Har bir yuridik shaxs o`z firma nomiga ega bo`lishi talab etiladi. Firma nomi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi. Masalan, “Zarbdor” savdo–ishlab chiqarish jamoa kor-xonasi. Bu yerda “Zarbdor” – korxonaning nomi, ya`ni, korxonaning mahsulot va xizmatlari “Zarbdor” yorlig`i ostida chiqariladi. “Savdo-ishlab chiqarish” korxona faoliyatining xarakterini, “ja-moa korxonasi” – korxonaning jamoa mulkchiligiga asoslanganli-gini bildiradi.

Shuningdek, yuridik shaxslar rasmiy nomda, ya`ni davlat nomida bo`lishlari ham mumkin. Yuridik shaxslarga rasmiy nomni berishda O`zbekiston Respublikasi Hukumati ruxsat beradi. Masa-lan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 28 yanvar-dagi Farmoniga ko`ra, Toshkent Davlat Universitetiga O`zbekiston Milliy Universiteti maqomi berildi.

Yuridik shaxs o`z faoliyatida o`z ta`sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo`ladi. Tashkilotlar bilan fuqarolar o`rtasidagi huquq layoqat-larining hajmida farq bo`lishi mutlaqo tabiiydir. Tashkilotlar fuqarolarga nisbatan belgilangan birmuncha huquq va majbu-riyatlarga ega bo`la olmaydilar, faqat o`z ustav yoki nizomlarida ko`rsatilgan faoliyat bilangina shug`ullana oladilar.

Yuridik shaxslarni tashkil etish asoslari.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi (FK, 41-modda, 3-band).

Yuridik shaxs hisoblangan tashkilot yoki korxona qatnashadi-gan munosabatlarning doirasi uning tashkil qilinish maqsadlari bilan hamda amalga oshirilishi lozim bo`lgan ishlarning xarakteri bilan belgilanadi. Yuridik shaxs

o`zi qatnashadigan munosabat-larga qarab ma`lum huquq va majburiyatlarga ega bo`ladi. Shunday qilib, yuridik shaxsning huquq layoqati, unga maxsus yuklangan vazifalar bilan belgilanadi (maxsus huquq layoqati prinsipi). Yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilab qo`yilgan ayrim fao-liyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida-gina shug`ullanishi mumkin. Masalan: neft, neft mahsulotlari va gaz qazib chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish faoliyati.

Fuqarolik huquqida fuqarolarga nisbatan huquq layoqatining tenglik prinsipi o`rnatilgan, fuqarolik huquq layoqatining maz-muni hamma fuqarolar uchun qonun bilan teng hajmda belgilangan bo`lsa, yuridik shaxslarning huquq layoqati undan farqlanib, ularning har qaysi turi uchun har xil bo`ladi. U barcha yuridik shaxslar uchun birorta umumiy hajmda oldin emas, balki muayyan yuridik shaxsning paydo bo`lishida, uning ish maqsadlariga qarab, qonun, ustav yoki nizomlarida belgilanadi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati ham fuqarolik muomala layoqatidan farq qiladi. Agar fuqarolarda huquq layoqatidan farq qilib, muomala layoqati muayyan yoshga yetgach vujudga kelsa, muomala layoqati yuridik shaxslarda huquq layoqati bilan bir vaqtda tashkil topadi. Shu bilan birga, fuqarolik muomala layoqatidan farq qilib yuridik shaxslarning muomala layoqatini cheklash va uni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas.

Yuridik shaxs o`z ustavi yoki nizomi asosida harakat qiladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati, uning ustavi yoki nizomi tasdiqlangan paytdan boshlab yoxud tegishli vakolatli idora ushbu yuridik shaxsni tashkil etish haqidagi qaror chiqargandan keyin vujudga keladi. Yuridik shaxs davlat ro`yxatidan o`tkazilgandan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi (FK, 44-modda, 4-band).

Umumiy qoida bo`yicha, yuridik shaxsning ta`sis hujjatlari qonun talablari darajasida bo`lsa, uni uch ish kunida davlat ro`yxatidan o`tkazish lozim. Ayrim yuridik shaxslarni tashkil qilish va davlat ro`yxatidan o`tkazish qonun bilan ta`qib qilinadi. Masa-lan, Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirishni

maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavf-sizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy ado-vatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalari-ning maxfiy jamiyat va uyushmalarning tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Yuridik shaxsning ustavi yoki u haqdagi nizom shunday hujjatki, bunda uning faoliyati uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlanadi. Ustavda yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan yeri, tashkil bo'lish maqsadi va tartibi, uning tashkiliy tuzilishi, a'zolarga ega bo'ladigan tashkilot bo'lsa, a'zolikka qabul qilish shartlari, mulkning tarkibi singari qator qoidalar belgilanadi.

Ba'zi hollarda, yuridik shaxsni tashkil etishda, mazkur tur-dagi yuridik shaxslarning tashkiliy tuzilishi va faoliyatiga doir barcha umumiy qoidalarni nazarda tutgan (tipovoy) namunaviy ustavlarning bo'lishi yuridik shaxs ustavini tuzish vazifasini yengillashtiradi. Bunday namunaviy ustavlarga fermer xo'jaligi-ning namunaviy ustavini, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning namunaviy ustavini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yuridik shaxsning organlari ham bo'ladi. Yuridik shaxs qonun, ustav yoki nizom bo'yicha belgilangan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi o'z organlari orqali fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati, ya'ni o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlarini olish layoqati, yuqorida ko'rsatilganidek, ularning organlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning organlari qonun, ustav yoki nizomga muvofiq ravishda yuridik shaxsning erk-irodasini ifodalaydi va yuridik shaxs nomidan faoliyat olib boradi. Yuridik shaxslarning organ-lari yakka boshchilikka asoslanib, direktor, rais, boshqaruvchi yoki kollegial boshqaruv, vakillar majlisi, umumiy majlis (yoki yig'ilish) singari tartibida boshqaradigan organ bo'lishi mumkin.

Yoydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2.Fuqarolik Kodeksi.
- 3.Huquqshunoslik. Darslik.
- 4.Internet materiallari.